



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI  
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING  
QARORI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 7 - yanvar

13-8-121-Q/22

Termiz shahar hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-yanvardagi “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalardan foydalanishni tartibga solish va ulardan foydalanish sohasida ruxsat berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 43-sonli qaror va ushbu qarorga ilova qilingan “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish, kesish hamda daraxtlarni xatlovdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 4-bob 29-bandiga, shuningdek, Surxondaryo viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2021-yil 08-noyabrdagi 340-sonli xulosasi hamda Termiz shahar “Gulira’no” mahallasi Al-Buxoriy ko‘chasi, 14-uyda yashovchi fuqaro R.Tursunqulovning 2021-yil 26-noyabrdagi T-2297-sonli arizasiga asosan**

**QAROR QILAMAN:**

**1.** Surxondaryo viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2021-yil 08-noyabrdagi 340-sonli xulosasi hamda Termiz shahar “Gulira’no” mahallasi Al-Buxoriy ko‘chasi, 14-uyda yashovchi fuqaro R.Tursunqulovning 2021-yil 26-noyabrdagi T-2297-sonli arizasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Termiz shahar “Gulira’no” mahallasi Al-Buxoriy ko‘chasi, 14-uyda yashovchi fuqaro R.Tursunqulovga:

Termiz shahar “Gulira’no” mahallasi Saroymulxonim ko‘chasidagi o‘svchanligini yo‘qotib qurib qolgan jami **2 (ikki)** tup **chinor** daraxtini 10 kun muddatda kesib olish va kesilgan daraxt o‘rniga, mavsumiy ko‘chat ekish davrida

Termiz shahar hokimligi tomonidan tavsiya etilgan hududga har bir kesilgan daraxt o‘rniga **10 (o‘n) tup yosh ko‘chatlar** ekish vazifasi yuklatilsin.

**3.** Surxondaryo viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Termiz shahar inspeksiyasi (S.Qurbonov) mazkur daraxtlarning kesilishi va ushbu joylarda qonun buzilish holatlarining yuzaga kelmasligi bo‘yicha nazorat o‘ratsin.

**4.** Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari B.Djurayev zimmasiga yuklansin.

Hokim



Xudayberdiyev I. B.